


I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmi joriy narxlarda 23 349,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. YAHMning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,0 foizni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.


Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 104,2 foiz, (YAHM tarkibidagi ulushi 53,4 foiz), sanoat – 110,2 foiz (12,6 foiz), qurilish – 115,6 foiz (5,9 foiz), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 112,4 foiz (5,6 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 120,5 foiz (3,6 foiz) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar 106,3 foiz (18,9 foiz)ni tashkil qildi.

2021 yilning yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMning ishlab chiqarishda tarmoqlarning ulushi, foizda








YAHM deflyator indeksi 2021 yilning yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan 117,4 foizni tashkil etdi.




(foizda)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 16 363,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,8 foizga o'sdi.





2021 yilning yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMning ishlab chiqarish usuli bilan hisoblangan tarkibi





	Mrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2020 yil	2021 yil	
I. YAHM	18 575,1	23 349,2	107,0
<i>shu jumladan:</i>			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	18 217,7	22 795,0	107,0
 Mahsulotlarga sof soliqlar	357,4	554,2	107,4
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	18 217,7	22 795,0	107,0
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9 769,9	12 183,5	104,2
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 240,0	4 224,8	112,2
 sanoat	2 041,7	2 873,7	110,2
 qurilish	1 198,3	1 351,1	115,6

		Mlrd. so‘m		O‘shish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020 yil	2021 yil	
	Xizmatlar	5 207,8	6 386,7	109,2
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 016,4	1 281,8	112,4
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	634,0	826,8	120,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	3 557,4	4 278,1	106,3

Iqtisodiy o‘shish sur‘ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida Iqtisodiy o‘shish sur‘ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy o‘shish sur‘atlari bilan bog‘liqdir.

2021 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


		2020 yil	2021 yil
	I. YAHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	98,1	97,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1,9	2,4
	II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	53,6	53,4
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	17,8	18,5
	sanoat	11,2	12,6

		2020 yil	2021 yil
	qurilish	6,6	5,9
	Xizmatlar	28,6	28,1
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,6	5,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,5	3,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	19,5	18,9

2021 yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,4 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 53,4 % ni, sanoat tarmog'i 12,6 % ni, qurilish 5,9 % ni va xizmatlar sohasi 28,1 % ni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi yanvar-dekabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)




2021 yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 28,1 foizni tashkil qildi, bu esa 2020 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 0,5 foiz punktga kamaygan (28,6 foiz). Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushi 5,6 foizda o'zgarishsiz qoldi, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlarida 0,1 foiz punktga ko'paydi hamda xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar ulushi 0,6 foiz punktga kamaygan.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2020 yil yanvar-dekabr

2021 yil yanvar-dekabr



Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YAHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 2021 yil yanvar-dekabr oylarida – 5,6 foizni (2020 yil yanvar – dekabr oylarida – 5,6 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa 3,6 foizni (3,5 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 18,9 foizni (19,5 foiz) tashkil etdi.

2021-yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2021- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 81,2 % ni tashkil qildi (2020- yilda – 83,0 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'li.

